# AGROSANOATDA KORXONA TARMOQLARI UCHUN ISHLAB CHIQARISH VOSITALARI ISHLAB CHIQARUVCHI SOHANING TARKIBI

**UDK: 330.43:338.43**

***Sultonov Sirojiddin Normurolovich (dotsent v.b)***

***Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM***

***ORCID: 0009-0008-3433-6107***

**E-mail:aligart-8300@mail.ru**

**Annotatsiya.** Agrosanoatda ishlab chiqarish vositalari sohasining ahamiyati shundaki, u qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini oshirib, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlaydi va iqtisodiyotning o‘sishiga hissa qo‘shadi. Ushbu sektorning iqtisodiyotdagi o‘rni quyidagilar orqali namoyon bo‘ladi: oziq-ovqat ta’minoti, bandlikni ta’minlash, eksportni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish.

***Kalit so‘zlar:*** *Agrosanoat, yaratuvchanlik, qishloq xo‘jaligi sanoati, hudud, raqobatdoshlik, ishlab chiqarish, moliya-kredit tizimi.*

# Структура отрасли, производящей средства производства для отраслей АПК

***Sultonov Sirojiddin Normurodovich (доцент и.т.д)***

***Ekonomiko-pedagogicheskiy universitet NOU***

**Абстрактный.** Значение агропромышленного сектора заключается в повышении производительности сельского хозяйства, обеспечении продовольственной безопасности и содействии экономическому росту. Роль агропромышленного сектора в экономике проявляется в обеспечении продовольственной безопасности, создании рабочих мест, развитии экспорта и привлечении инвестиций.

***Ключевые слова:*** *Агропромышленный комплекс, креативность, сельскохозяйственное производство, территория, конкурентоспособность, производство, финансово-кредитная система.*

**Structure of the sector producing means of production for enterprise sectors in the agro-industry**

***Sultonov Sirojiddin Normurodovich (associate professor etc)***

***University of Economics and Pedagogy***

**Abstract.**The importance of the agro-industrial sector is that it increases agricultural productivity, ensures food security, and contributes to economic growth. The role of this sector in the economy is manifested in the following: food security, employment generation, export development, and investment attraction.

***Keywords:*** *Agro-industry, creativity, agricultural industry, region, competitiveness, production, financial and credit system.*

**Kirish.**

Agrosanoat majmuasi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaradigan soha uning 1- sohasi hisoblanadi. Bu sohaga agrosanoat majmuasiga kiradigan barcha tarmoqlar uchun kerakli ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar kiradi. Qishloq xo‘jaligi uchun traktorlar, don o‘rish kabaynlari, ekinlarni ekish, ko‘p yillik o‘tlarni o‘rishini amalga oshiradigan texnikalar, maxsus yuk avtomobillari, kuch beruvchi mashinalarga organ va ishchi mashinalar ishlab chiqaruvchi tarmoq korxonalari agrosanoat majmuasining 1-sohasi tarkibiga kiradi. O‘zbekiston Respublikasida traktor va qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, kimyoviy vositalar va mineral o‘g‘it ishlab chiqarish korxonalari, mikrobiologiya sanoati, ixtisoslashgan qurilish materiallari sanoati yetarli darajada yaxshi rivojlangan [1].

Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va sotish bilan shug‘unlanuvchi tarmoqlarda foydalaniladigan ishlab chiqarish vositalarini yaratadigan tarmoq va korxonalar ham 1-sohaning tarkibini tashkil etadi. Bundan tashqari chorva mollari uchun konsentratlangan ozuqalar (omuhta yem sanoati), qishloq xo‘jaligi uchun mineral o‘g‘it va kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish ham 1-sohaga kiradi [2].

**Adabiyotlar sharhi.**

Agrosanoat sohasiga yangi bozor mexanizmlarini joriy qilish, mahalliy mahsulotlarning raqobatdoshligini oshirish bo‘yicha, xorij va mamlakatimiz olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Ular ilmiy asarlarida, ma’ruzalarida klasterlashtirish, agroklaster tizimini optimallashtirish masalalari va qarashlarini, ilmiy fikr-mulohazalarini bayon etishgan. Jumladan, innovatsion ixtisoslashtirilgan banklar, davlat-xususiy sheriklik, korporativ venchur fondlari. Innovatsion ixtisoslashgan banklar moliyaviy institutlar bo‘lib, ular qisqa, o‘rta va uning istalgan bosqichida innovatsiyalarni yaratish va amalga oshirish uchun uzoq muddatli kreditlar ishlab chiqish va joriy etish. Kredit berish uchun asoslar to‘plamini taqdim etishdir. Loyihaning rentabelligini hisoblashni o‘z ichiga olgan korxona tomonidan hujjatlar, ushbu ma’lumotlar asosida innovatsion bank tomonidan ijobiy qaror qabul qilinishi mumkinligi. Bu innovatsion bank nafaqat kredit beradi, balki yuridik va jismoniy shaxslar uchun depozitlar ochadi. Ya’ni mablag'larni to‘plash. Bunday holda, davlat xavf-xatarlar uchun kafil bo‘lishi kerak. Innovatsion banklarning innovatsion faoliyati uchun maqsadli kreditlar taklif qilishda duch kelishi mumkin agrosanoat klasterlarida degan manbalar mavjud. E.M. Akhmetshin, K.A. Barmuta, Z.M. Yakovenko, L.I. Zadorozhnaya, D.S. Mironov, E.N. Klochko, D.V. Zavyalov, T.P. Maksimova, N.E. Bondarenko (2017) [3,4,5].

Hududiy agrosanoatni rivojlantirish uchun byudjet mablag‘larining etishmasligi sharoitida klasterlar, davlat va xususiy kuchlarni birlashtirishga asoslangan yangi manbalardan foydalanish kerak davlat-xususiy sheriklik shaklidagi tadbirkorlik faoliyatini oshirish tog’risi takidlangan I.S. Abdullaev, P.A. Gurbanov, R.A. Aleshko, Y.Yu. Finogenov, Siberian J (2023) [6].

Agrosanoat kompleksini rivojlantirishning ushbu mexanizmi o‘zaro ta’sirni o‘z ichiga oladi davlat va xususiy sektor o‘rtasida, xususiy sherik nafaqat ishtirok etganda ob’ektni loyihalash, moliyalashtirish, qurish, balki uning keyingi faoliyatida ham davlat hamkorining foydasi haqida olimlar tomonidan o‘rganilgan E.M. Akhmetshin, E.P. Kolpak, E.A. Sulimova, V.S. Kireev, E.A. Samarina, N.Z. Solodilova (2017) [7].

Mamlakatda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish sur’ati qishloq xo‘jaligi nisbatan sekinligicha qolmoqda. Biroq, ba’zi hududlar allaqachon erishgan bunday tashabbuslar bilan ijobiy tajribalar, ushbu moliyalashtirishning istiqbolli salohiyatini ko‘rsatmoqda manba. Xususiy investorlar uchun asosiy tashvishlar bilan bog‘liq yuqori xavf kiradi agrosanoat klasterlarini tashkil etishni nazarda tutuvchi loyihalar, kadrlar yetarli emas trening. Yana bir mumkin bo‘lgan muammo davlat sektorining istamasligi bilan bog‘liq ayrim hollarda xususiy biznes vakillari bilan hamkorlik qilish manfaatlidir K. Barmuta, N. Tuguz (2021) [8].

Loyihalarni moliyalashtirishda korporativ venchur fondlarining keng qo‘llanilishi Agrosanoat klasterining rivojlanishi hali yetarlicha nazariy va bu masala bo‘yicha uslubiy ish. Boshqacha aytganda, nazariyaga ehtiyoj bor korporativ venchur moliyalashtirishning asoslari va amaliy sinovlari o‘tkazganlar M.K. Barcho, O.V. Otto, H.A. Hajiyev, V.O. Samusenkov, L.N. Korshunova, N.O. Vikhrova, N.N. Nikulin (2020) [9].

Yuqorida keltirilgan va boshqa manbalarda agrosanoat sohasiga yangi bozor mexanizmlarini joriy qilish, mahalliy mahsulotlarning raqobatdoshligini oshirish omili sifatida mintaqaning raqobatdoshligini baholash borasida, zaruriyatlari hamda ularni rivojlantirish muammolari atroflicha keltiriladi.

**Tadqiqot metodologiyasi**. Respublikada, ayniqsa, go‘shtni, sutni qayta ishlash sanoatining quvvati juda katta. Lekin keyingi yillarda chorvachilikning to‘liq xususiylashtirilishi yirik chorva fermalarining tugatilishiga olib keldi. Bu, o‘z navbatida, go‘sht va sutni qayta ishlash sanoatini xomashyo bilan yil davomida bir tekisda ta’minlanish imkoniyatini yo‘qqa chiqardi. Ob’ekt sifatida Qashqadaryo viloyati hisoblanadi asosiy ishlab chiqarish a’zosi. Tadqiqotning axborot bazasini xorijiy va mahalliy ilmiy ishlar tashkil etdi olimlar, davlat statistikasi materiallari, normativ-huquqiy va qonunchilik bazasi O‘zbekiston Respublikasi.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Agrosanoat majmuasi uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi sohaning ahamiyati va iqtisodiyotdagi o‘rni bo‘yicha mamlakat jami yalpi ichki

mahsulotining 15-16 foizi sanoat tarmoqlari ulushga to‘g‘ri keladi. Mamlakat sanoatining asosiy qismi agrosanoat majmuasi bilan bog‘liq. Agrosanoat majmuasi yaxshi, samarali ishlashini bu majmua 1- sohasining rivojlanish darajasi belgilaydi. Agarda mamlakatda agrosanoat majmuasining 1- sohasi yaxshi rivojlangan bo‘lmasa, zarur ishlab chiqarish vositalarini, texnikalarni tashqaridan sotib olish zarurati tug‘iladi. Bu esa har yili katta muqdordagi moliyaviy resurslarni talab qiladi. Eng yomoni, mamlakat agrosanoat majmuasining muvaffaqiyatli faoliyati boshqa davlatlardan kerakli ishlab chiqarish vositalri olib kelishga bog‘liq bo‘lib qoladi. Bunday bog‘liqlik, odatda, salbiy oqibatlarga olib keladi [10,11].

Agrosanoat ishlab chiqarish vositalari sohasining ahamiyati:

Qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini oshirish: Zamonaviy texnika, urug‘lik, o‘g‘itlar va kimyoviy vositalar dehqonlarga hosildorlikni ko‘paytirishga yordam beradi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash: Ishlab chiqarish vositalari qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmini oshirish orqali mamlakatning oziq-ovqat bilan o‘zini ta'minlash darajasini yaxshilaydi.

Innovatsiyalar va texnologik rivojlanish: Sanoatning ushbu sohasi agrosanoat sektorini modernizatsiya qilishga va yangi texnologiyalarni joriy etishga yordam beradi.

Iqtisodiyotdagi o‘rni:

Iqtisodiy o‘sishga hissa qo'shish: Mahsulotlarning o‘sishi va eksportning ortishi milliy iqtisodiyotga foyda keltiradi.

Bandlikni ta'minlash: Qishloq xo'jaligi uskunalarini ishlab chiqarish, ta’mirlash va xizmat ko'rsatish sohalarida yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Eksportni rivojlantirish: O‘zbekiston agrosanoat mahsulotlari va uskunalarini chet ellarga eksport qilish orqali valyuta tushumlarini ko‘paytirishi mumkin.

Investitsiyalarni jalb qilish: Sanoatning ushbu tarmog‘i xorijiy va mahalliy investorlarni jalb qiladi, bu esa sanoatning rivojlanishiga va texnologik yangilanishlarga yordam beradi[12,13].

Albatta, har bir mamlakat o‘z iqtisodiyoti uchun kerakli barcha ishlab chiqarish vositalarini o‘zi ishlab chiqarishini tashkil eta olmaydi. Tashkil etganda ham samarasi past bo‘lishi mumkin. Lekin imkon boricha mamlakatining imkoniyatlarini hisobga olgan holda eng samarali tartibda ishlab chiqarish vositalarini mamlakatda yaratish yo‘llarni izlab topish lozim. Sifatli va bizda yaratilganiga nisbatan arzon ishlab chiqarilgan vositalarni chetdan sotib olish mumkin. Bu masala doimiy e`tiborni talab qiladi. Mamlakatda fan, texnika, texnalogiya va mehnat resurslarining bilim, malaka darajasi oshib borgan sari talabga qarab ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarishning tarkibi va hajmi ko‘payib borishi maqsadga muvofiq.

Agrosanoat majmuasining birinchi sohasiga kiruvchi korxonalarni tashkil etish, rivojlantirish katta iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Sohiga kiruvchi tarmoqlarning rivojlantirilishi iqtisodiyotni sanoatlashtiradi. Sanoatning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish imkonini kuchaytiradi. Ma`lumki qishloq xo‘jaligining natijalari ko‘pincha tabiiy sharoitlarga, yog‘ingarchilik darajasi, issiqlik, suvning yetarli bo‘lishi, tabiiy kataklizmalarning bo‘li-bo‘lmasligiga bog‘liq. Sanoat esa bu omillarga bog‘liqligi minimumlashgan sohadir. Agrosanoat majmuasining birinchi sohasiga kiruvchi tarmoq korxonalarining rivojlanishi mamlakat mehnat resurslarini ish bilan ta`minlashni yaxshilaydi. Sanoatda ish bilan ta`minlangan mehnat resurslarining malakasi yuqori bo‘ladi. Natijada mehnat resurslarning sifati yaxshilanadi va raqobatbardoshligi oshadi. Qolaversa sanoatda yuqori malakali, intensiv mehnat bo‘lganligi uchun unga to‘lanadigan haq ham yuqori. Bu bir tomondan aholining turmush darajasini oshiradi, uning mahsulot va xizmatlarni sotib olish qobiliyati oshadi. Ikkinchi tomondan esa davlat budjetiga to‘laydigan daromad soliqlari ham yuqori bo‘ladi. Bu davlat budjetining mustahkamlanishiga, iqtisodiy – ijtimoiy masalalar yechimining yaxshilanishiga olib keladi [14,15].

O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasi 1- sohasining ayrim tarmoqlari yaxshi rivojlangan. Jumladan, kimyo sanoati agrosanoat majmuasi 1-

sahosining asosiy tarmoqlaridan bo‘lib, unda jami sanoat mahsulotning 5,5 foizi ishlab chiqariladi. Mineral o‘g‘itlar va kimyoviy dorilar, perperatlar ishlab chiqarish sohasi rivojlangan soha hisoblanadi. Mamlakatda azotli, fosforli mineral o‘g‘itlar qishloq xo‘jaligining talabini to‘la qondiradigan miqdorda ishlab chiqariladi. Bundan tashqari mamlakatda ishlab chiqarilayotgan azotli va fosforli mineral o‘g‘itlarning bir qismi xorijiy davlatlarga eksport qilinadi.

Mineral o‘g‘itlarni ishlab chiqarishni ko‘paytirish borasida katta resurslarga egamiz. Mustaqillikning daslabki yillarida flsforli mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarishda katta muammolar yuzaga keldi. Chunki fosforli mineral o‘g‘itning asosiy komponenti, xomashyosi hisoblangan fosfor uni asosan qo‘shni Qozoqiston Respublikasidan keltirilar edi. Sobiq ittifoq davrida o‘rnatilgan iqtisodiy aloqalarning buzulishi oqibatida fosforli unni import qilish imkoni kamaydi. Natijada 1994-1998 yillarda fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqaradigan qator zavodlar to‘xtab qoldi. Bundan malakat katta iqtisodiy va ijtimoiy zarar ko‘rdi. Respublika mineral o‘g‘itlar ishlab chiqaradigan zavodlarni xomashyo bilan uzuksiz ta’minlash choralari ko‘rildi. Natijada Navoiy viloyatida fosfor unini boyituvchi zavod 2002 yilda ishga tushurildi va bu borada katta rivojlanishga asos yaratildi.

Albatta mineral o‘g‘itlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish, uning yanada samrali turlarini ishlab chiqarish ustida ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa mineral o‘g‘itlar tarkibini boyitish (sof ta`sir qiluvchi modda salmog‘ini ko‘paytirish) katta iqtisodiy samara beradi. Mineral o‘g‘itlar tarkibida azot, fosfor va kaliyning miqdorini 1 foizga oshirish ming – ming tonnalab yukni ortiqcha tashishdan xalos etadi. Bu esa juda katta tejamkorlikka olib keladi.

Respublikamizda asosan azotli va fosforli mineral o‘g‘itlar ishlab chiqariladi. Kaliyli o‘g‘itlar ishlab chiqarish uchun xomashyoning yetishmasligi, maxsus zavodlaning yo‘qligi tufayli bu turdagi o‘g‘itlarni asosan import qilamiz. Import qilinayotgan kaliyli o‘g‘itlarning qimmatliligi uni talab darajasida yetarlicha olib kelishga imkon bermapdi. Albatta bu qishloq xo‘jali ekinlaridan yuqori hosil olishda salbiy ta`sir etmoqda. Masala shundaki qishloq xo‘jaligi ekinlariga solinadigan

mineral o‘g‘itlar turli omillarni hisobga olgan holda ma`lum nisbatlarda berilishi kerak. Azot, fosfor, kaliyni ilmiy belgilangan nisbatlarda ekinlarga bermaslik ularning hosildorligini pasayishiga sabab bo‘ladi [16,17].

Mamlakat agrosanoat majmuasining 1- sohasiga kiruvchi traktorsozlik, paxta terish mashinalari ishlab chiqarish tarmoqlari yaxshi rivojlangan. O‘zbekiston Respublikasi paxta terish mashinalarini komples holda ishlab chiqaradigan ikki davlatning biri hisoblanadi. Paxta terish mashinalarini AQSH va O‘zbekiston Respublikasi ishlab chiqaradi. Albatta Isroil ham AQShning paxta terish mashinalari ishlab chiqaradigan korxonalari bilan birgalikda ushbu sohani tashkil etgan. Ammo u asosan o‘zi uchun ishlab chiqaradi.

Respublikada qishloq xo‘jaligi mashinasozligi mamlakat sanoatining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda 300 dan ortiq qishloq xo‘jaligi mashinalar va ularning butalovchi qismlarini ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari bor. Ayniqsa, paxta terish mashinalari va agregatlari ishlab chiqarish tizimi yaxshi rivojlangan. Paxta terish mashinalari bilan bog‘liq barcha mexanizmlar O‘zbekistonda ishlab chiqariladi. Mamlakatda ishchi mashinalar – pluglar, ekish agregatlari, chizellar, boronalar va ko‘plab turdagi ish qurollari ishlab chiqarish ham yo‘lga qo‘yilgan. Albatta, ularning sifatini yaxshilash talab qilinadi. Respublikada don o‘rish kambaynlari, maxsus aftomobillar kabi juda zarur vositalar ishlab chiqarish tarmoqlari hali tashkil etilmagan. Ular boshqa davlatlardan import qilinadi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash sohasi uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish ham respublikada yaxshi rivojlamagan. Bu mamlakat agrosanoati majmuasida yetishtirilayotgan mahsulotlarni qayta ishlash tarmoqlari texnik jihozlanishini importga bog‘lab qo‘ymoqda. Natijada, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sifatli qayta ishlash jarayonida ayrim qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda.

Hozircha qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash tarmoqlariga asosiy vositalar va texnalogiyalar asosan chetdan olib kelinmoqda. Mamlakatda faqatgina yengil to‘qmachilik tarmog‘i uchun zarur ayrim texnikalar

ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Agrosanoat majmuasi tarmoqlarida mavjud texnikalarga butlovchi qismlar ishlab chiqarish asta – sekinlik bilan yo‘lga qo‘yilmoqda [18,19].

.Respublikada mavjud holatni chuqur o‘rganib hamda agrosanoat majmuasi tarmoqlarining talablaridan kelib chiqib, asosiy vositalar lizingi rivojlantirilmoqda. Lizing yo‘li bilan chetdan eng zarur asosiy vositalar keltirilmoqda. Masalaning bu tariqa hal etilishi ham malakat iqtisodiyoti ayniqsa, qishloq xo‘jaligi uchun muhim ahamiyatga ega.

**Xulosa va takliflar:**

Xulosa qilib aytganda, agrosanoat majmuasi 1- sohasining rivojlanish darajasi yuqori emas. Demak, bu sohani rivojlantirish mamlakat hukumati iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar yig‘indisi agrosanoat majmuasining birinchi sohasi hisoblanadi. Bu sohaga kirgan sanoat tarmoqlari agrosanoat majmuasi uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaradi. Bu tarmoqlarga qishloq xo‘jaligi uchun mashinasozlik tarmoqlari, traktor va kombaynlar, ishchi mashinalar, maxsus transport texnikalar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar, oziq-ovqat va yengil sanoat uchun ishlab chiqarish vositalari chiqariladigan korxonalar kiradi. Bundan tashqari qishloq xo‘jaligi uchun mineral o‘g‘itlar va boshqa kimyoviy vositalar ishlab chiqaruvchi korxonalar, chorvachilik uchun konsentrat yem ishlab chiqaruvchi tarmoqlar kiradi.

Bu tarmoqlarning asosiy qismi O‘zbekiston Respublikasida tashkil etilgan va rivojlantirilmoqda. Shu bilan birgalikda don kombayinlari, maxsus transport vositalari, ishchi mashinalarning bir qismini ishlab chikarish tashkil etilmagan. Umuman aytganda, agrosanoat majsuasi birinchi sohasini imkon darajada kuchli rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

**Адабиётлар:**

1. *Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 23 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5853-сон Фармони.*
2. *O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 23 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son Farmoni.*
3. *Larin I. Razvitiye integratsionnix protsessov v APK Uzbekistana. –Tashkent, 1998.*
4. *Ro‘ziyev A., Mirzayev Sh., Barotaliyev U. Surxondaryo suv omborlari va agrosanoat majmuini rivojlantirish masalalari. -Toshkent, 1997. www.ziyonet.uz*
5. *E.M. Akhmetshin, K.A. Barmuta, Z.M. Yakovenko, L.I. Zadorozhnaya, D.S. Mironov, E.N. Klochko, Int. J. of App. Business and Economic Res. 15(23), 355-364 (2017)*
6. *D.V. Zavyalov, Russian Journal of Entrepreneurship, 18(17): 2451-2552 (2017). DOI: https://doi.org/10.18334/гр18.17.38285.*
7. *T.P. Maksimova, N.E. Bondarenko, Issues of branch clusters development: from theory to practice. Interactive Science 6: 114-119 (2016)*
8. *I.S. Abdullaev, P.A. Gurbanov, R.A. Aleshko, Y.Yu. Finogenov, Siberian J. of Life Sci. and Agr. 15(3), 357-386 (2023). doi: 10.12731/2658-6649-2023-15-3-357-386*
9. *E.M. Akhmetshin, E.P. Kolpak, E.A. Sulimova, V.S. Kireev, E.A. Samarina, N.Z. Solodilova, Int. J. of Appl. Business and Economic Res. 15(23), 221-231 (2017).*
10. *K. Barmuta, N. Tuguz, E3S Web of Conferences, 273, 08005 (2021).*
11. *M.K. Barcho, O.V. Otto, H.A. Hajiyev, V.O. Samusenkov, L.N. Korshunova, N.O. Vikhrova, N.N. Nikulin, Entrepreneurship and Sustainability Issues, 8(1), 960-971 (2020). doi:10.9770/jesi.2020.8.1(64)*

12. *Абдиев А. Агросаноат мажмуаси иқтисодиёти фанидан маърузалар матни. Қарши-2007*
13. *Жўраев Ф.Д. & Аралов Г.М. (2023). Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш жараёнини эконометрик моделлаштириш заруриятининг асосий жиҳатлари. // Educational research in universal sciences, 2(2), 36-43.*
14. *Жўраев Ф.Д. (2021). Қишлоқ хўжалик маҳсулотлари ишлаб чиқаришни қисқа муддатли прогнозлаштириш. // Инновацион технологиялар, (2 (42)), 92-95.*
15. *Rakhimov A.N. & Jo‘raev F.D. (2022). A Systematic Approach To The Methodology Of Agricultural Development And The Strategy Of Econometric Modeling. resmilitaris, 12(4), 2164-2174.*
16. *Juraev F.D.S. (2021). Problems Of Informatization Of Management Of Agricultural Industry And Modeling Of Agriconomic System In A Market Economy. The American Journal of Applied sciences, 3(02), 49-54.*
17. *Mukhitdinov K.S. & Juraev F.D. Methods of Macroeconomic Modeling. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD), e-ISSN, 2456-6470.*
18. *Жўраев Ф.Д. & Аралов Г.М. (2023). Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш жараёнини эконометрик моделлаштириш заруриятининг асосий жиҳатлари. Educational research in universal sciences, 2(2), 36-43.*
19. *Rakhimov A.N., Makhmatkulov G.K. & Rakhimov A.M. (2021). Construction of econometric models of development of services for the population in the region and forecasting them. The American Journal of Applied sciences, 3(02), 21-48.*